


BIBIHONIM MADRASASI ARXITEKTURASI

*Magistr: Tojiyeva Orzugul Ziyatillayevna**TAQU**[+998917738020 orzugultojiyeva0@gmail.com](mailto:orzugultojiyeva0@gmail.com)**Sayfullayeva Ruxsora Xikmatulla Qizi**TAQU 2-kurs talabasi**[+998887265505 sayfullayevruxsora5@gmail.com](mailto:sayfullayevruxsora5@gmail.com)***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received:01.02.2026**Revised: 02.02.2026**Accepted:03.02.2026***KALIT SO'ZLAR:***arxitektura, madrasa,
ustun, muqarnas,
peshtoq, ravoq, gumbaz*

Samarqandning ko'hna qismida, Amir Temur jome' masjidining kunchiqar tomonida, bundan olti asrlar ilgari barpo qilingan, mo'jazgina, asrlar yukidan beli bukchayib qolgan bir me'moriy obida qad rostlab turibdi. Bu obidaning gumbazi ostida Amir Temurning suyuqli xotini, u bilan ko'plab issiq-sovuqlarni birga baham ko'rgan, zukko, tadbirkor, oqila Katta xonim-Saroymulixonim-Bibixonim abadiy uyquda yotibdi. Bibixonim madrasasi – Amir Temurning katta xotini Bibixonim "o'z onasi sharafi"ga 14-asr oxirida Samarqandda qurdirgan. Olim A. Vamberi ta'kidlashicha, bu madrasada 1000 ga yaqin talaba o'qigan. Har xil ofatlar, qarovsizlik va asrlarning zalvorli yukidan uning gumbazi yiqilib tushdi, ammo butunlay yo'q bo'lib ketmadi. . Maqolada Samarqandda joylashgan Bibihonim madrasasi haqida ma'lumot mavjud. Ko'plab sayyohlarni o'ziga jalb qiluvchi madrasalardan biri hisoblanadi.

Kirish: Bibixonim maqbarasining tashqi ko'rinishi ulug'vor va ta'sirli. Asosiy kirish eshigi o'ymakor naqshlar va koshinlar bilan bezatilgan. Gumbaz katta hajmli bo'lib, ko'k va ko'k-yashil rangli koshinlar bilan qoplangan. Bu binolarni bugungi kun talabi asosida uqur o'rganish tahlil qilish vas hu asosida ilmiy xulosalar chiqarishni talab etadi.

Asosiy qism: Bibixonim jome masjidi (Amir Temur jome masjidi) — Samarqanddagi me'moriy yodigorlik (1399-1404). Amir Temurning katta xotini Bibixonim (asli Saroymulk xonim) nomi bilan bog'liq. Amir Temur farmoni bilan qurilgan . Masjidni qurgan usta va me'morliklarning nomlari noma'lum. Masjid hovlisining sahni 63,8x76,0 m bo'lib, to'rt tomondan ravoq va peshtoqlar bilan o'ralgan. Uning umumiy sahni 167x109 m, burchaklarida baland minoralar bo'lgan. Zilzilalar ta'sirida astasekin yemirilib vayron bo'lgan, faqat shimoli-g'arbiy minoraning pastki qismigina saqlanib qolgan, balandligi 18,2 m. Poydevori harsang toshdan, devorlari pishiq g'ishtdan ishlangan (qalinligi 4,5 m).



1-rasm

Masjidning bir-biri bilan bog'langan 6 ta me'moriy bo'laklari saqlanib qolgan. Bular hovlining to'rida mehrobli va baland peshtoqli bino, ikki yonida uning kichik nushasi , poyida masjidning ikkiga bo'lingan peshtoqi va shimoli-g'arb tomonda minoradir. Ilgari bu bo'laklar 3 qator oq marmar ustunli , yengil ravoqli bostirma ayvonlar bilan birlashgan va ular tepasida gumbazchalar (400 ta) bo'lgan. Ustunlar 480 ta (oralig'i 3,5 m) bo'lib, tagkursili, tanasi o'yma naqsh, tepasi kalla muqarnas bilan bezalgan (ular tuproq ostiga kumilib ketgan, arxeologik qidiruv ishlari natijasida ustunlar, tagkursilar va mayda kosachalardan iborat muqarnasli ustun qoshi topilgan). Hovlining har ikki yonida tashqi

darvozaga ega bo'lgan turtta peshtokli darvozahonasi bor. Masjidning hovli sahniga marmar tosh taxtachalar yotqizilgan. Hovli o'rtasida marmar toshdan yasalgan ulkan lavh (Quron o'qiladigan maxsus kursi) bulib, u dastlab asosiy bino ichida turgan (1875-yilda katta gumbazning qulashidan xavflanib, hovli o'rtasiga chiqarib qo'yilgan). Atrofiga nafis hoshiyalar chizilgan, muqarnaslar, o'simliksimon nakshlar va yozuvlar bilan bezalgan lavh Amir Temurning nabirasi Ulug'bek farmoniga binoan 15-asr urtalarida yasalgan. Unga „Sultoni azim, oliy himmatli xoqon, dindiyonat homiysi, Xanafiya mazhabining posboni, aslzoda sulton, ibni sulton, amiri mo'aminin Ulug'bek Ko'ragon“, deb bitilgan.



2-rasm




3-rasm

Masjidga kiraverishdagi peshtoqning yuqori qismi 1897-yilgi zilzila paytida qulagan (qolgan qismining balandligi 33 m, kengligi 46 m). Peshtoq mahobatli bo'lib, o'rtasida kengligi 18,8 m li ravoq bor. Yon tomonlaridagi minoralar peshtoqdan baland. Peshtoqning ichki tomonida kichikroq (ikkinchi) ravoq o'rnashgan. Unda o'yma marmar hoshiyali darvoza bo'lgan. Uning ustidagi lavhada masjidning qurilgan yili va Amir Temur shajarasi yozilgan (1897-yilgi zilzilada katta peshtoq ravog'i qulab tushgan). Qo'sh tabaqali darvoza yetti xil metall qotishmasi — „hafti jush“dan yasalgan (keyinchalik yo'qolib ketgan). Peshtoqning yon qanotlarida ikkita aylanma zina bo'lgan. Zinadan yuqoriga—kungura ravoqli maydonchaga chiqilib, undan minoraga o'tilgan. Peshtoqning keng yuzasi jilvali koshinlar, rangbarang, qalqon shaklidagi naqshlar bilan bezatilgan (hozir peshtoqning koshinlari tushib ketgan. Peshtoqning saqlanib qolgan qismi yorilib, devordan ajralib qolgan). Masjidning asosiy (mehrobli) binosi Amir Temur zamonasining

me'moriyuslublari haqida to'liq tasavur beradi. Sharofiddin Ali



4-rasm



5-rasm

Yazdiyning „Agar osmon gumbazi bo‘lmaganda masjid gumbazi olamda yagona bo‘lar edi“, degan mubolag‘asi bejiz emas. Asosiy binoning old tomonida peshtoq, markazida ravoq va burchaklarida ikkita ko‘p qirrali minora bor. Peshtoq orqasidagi xona oddiy, ammo salobatli handasiy shakllar yig‘indisi (kubsimon prizma, xonaning sakkiz qirrali qismi ustiga tushgan poygumbaz va gumbaz)dan iborat. Kubsimon prizma binoning asosiy hajmi bo‘lib, tomonlari 14,6 m ga teng. Uning ustida xona devorlari bo‘ylab o‘tuvchi ravoqlardan iborat 8 qirrali prizma bor. Gumbazning doirali asosiga poygumbaz tutashtirilgan. Poygumbaz sirtiga Qur‘on oyatlari bitilib, usti feruza koshinlar bilan pardoziqlangan gumbaz bilan berkitilgan (qoldig‘i ko‘rinib turibdi). Uning kirish tomonlari ham bosh peshtoq kabi rangbarang koshinlar bilan qoplangan, sopol g‘ishtchalar yotiq, sirlangan rangli g‘ishtchalar tik terilgan.

Xulosa: Bibihonim maqbarasi Samarqandning muhim tarixiy yodgorliklaridan biridir. U Amir Temur davrida qurilgan bo‘lib, o‘z davrining me‘morchiligi va madaniyatini aks ettiradi. Maqbara bugungi kunda ham tarixiy va madaniy ahamiyatini yo‘qotmagan va xalqimiz merosi sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Bibixonim_madrasasi
2. <https://meros.uz/object/bibixonim-maqbarasi>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Bibixonim_jome_masjidi
4. <https://www.scribd.com/document/802276833/Bibixonim-Maqbarasi-1>